

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALARI VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

U.S. JURAYEV

60210500 -Rangtasvir

bakalavriat ta'lif yo'naliishlari bo'yicha ta'lif olayotgan talabalar uchun

"San'at sohasida axborot texnologiyalar"
fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha

U S L U B I Y K O'R S A T M A



Guliston 2024

U.S. Jurayev, “San’at sohasida axborot texnologiyalar” fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy ko‘rsatma. Guliston, 2024 y., 62 bet.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma amaldagi dasturlar asosida tayyorlangan bo‘lib, bakalavriatning 60210500 – Rangtasvir ta’lim yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Unda san’at sohasida axborot texnologiyalari fani bo‘yicha amaliyot mashg‘ulotlar ishlanmasi, topshiriqlar, bilimlarni tekshirish uchun savollar majmuasi kabilar keltirilgan.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Guliston davlat universiteti O‘quv – uslubiy Kengashi tomonidan («___» _____ 2024 y. dagi, №___ sonli bayonnomma) nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Axborot texnologiyalari kafedrasining 2024-yildagi _____ dagi ___-sonli yig‘ilishida maqullangan.

Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti uslubiy kengashining 2024 yildagi _____ dagi ___-sonli qarori bilan muhokama etilib foydalanishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

S.A. Tishlikov, GulDU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi mudiri, dotsent.

D.B. Abduraximov, GulDU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi dotsenti

SO‘Z BOSHI

Hozirgi kunda fan va texnika yuksak cho‘qqilarga erishayotgan bir davrda, texnika bilan hamnafas bo‘lish kelajak avlod vakillarining maqsadlaridan biri xisoblanadi. Oliy o‘quv yurtlarida taxsil olayotgan 60210500 – Rangtasvir ta’lim yo‘nalishi talabalarining “San’at sohasida axborot texnologiyalar” fani bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishlari, shu bilimlarga tayangan holda xozirgi hayotimizning ajralmas qismi, kompyuterdan erkin foydalana olishlari davr talabidir.

Talabalarning “San’at sohasida axborot texnologiyalar” fani bo‘yicha nazariy bilimga, zarur malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarida amaliyot mashg‘ulotlarni bajarishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur uslubiy ko‘rsatmada bugungi kunda o‘quv jarayonida mavjud va qo‘llanilayotgan amaliy dasturlarni xisobga olgan holda, kompyutering imkoniyatlarini keng o‘rgatuvchi barcha amaliyot ishlari ushbu uslubiy ko‘rsatmada keltirilgan.

Uslubiy ko‘rsatmada keltirilgan setup dasturi yordamida kompyuterlarni sozlash, qobiq dasturlari va arxivator dasturlarida ishslash, Microsoft office dasturining ilova paketlari xisoblanuvchi Wordda matlar bilan ishslashni, Excelda jadvallar va diogramma bilan ishslashni, PowerPointda o‘quv jarayonini o‘rgatuvchi taqdimotlarni rasm xamda audio ovozlar bilan keng boyitib yaratish, Accessda muayyan bir guruhning ma’lumotlar omborini shakillantirish o‘rganish, vektorli va rastorli grafik muharrirlarida ishslashni o‘rganish, internet tarmog‘ida ma’lumotlarni qidirish va elektron pochta ochib unda ma’lumotlar almashishni o‘rganish, tarmoqlarni sozalsh, davlat interaktiv xizmatlaridan foydalanish, axborotlarni ximoyalashning texnik va dasturiy vositalari bilan ishslashni o‘rganish bo‘yicha mavzulari amaliy topshiriqlar asosida ko‘rib chiqilgan.Talabalar amaliyot mashg‘ulotlarini samarali o‘zlashtirishi uchun mazkur to‘plamda amaliyotda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar rangli rasmlar bilan keng yoritilgan.

KIRISH

Amaliyot ishlarini bajarish bo‘yicha ushbu ko‘rsatmalar kafedra o‘qituvchilari tomonidan “San’at sohasida axborot texnologiyalar” fanidan amaliyot ishlarini tezda o‘zlashtirish va kafedralarning ish rejalariga muvofiq amaliyot ishlarini bajarish uchun zarur uslubiy materiallarni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan.

San’at sohasida axborot texnologiyalar fani 60210500 – Rangtasvir bakalavriat ta’lim yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanni o‘qitish natijasida bo‘lajak psixologiya o‘qituvchilari axborot texnologiyalariga bo‘ladigan talablar, shaxsiy komputerlarda ishlash, dasturiy vositalar va ularning tasnifi, ulardan foydalangan holda yaratishga oid bugungi kunning zamonaviy bilimlari bilan qurollantirishga e’tibor qaratiladi.

San’at sohasida axborot texnologiyalar fanini o‘qitishdan maqsad – kasbiy sohasida egallashi lozim bilimlar va amalda qo‘tlash uchun ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo‘lgan tayanch nazariy va amaliy ma’lumotlami o‘z ichiga oladi.

San’at sohasida axborot texnologiyalar fanining vazifasi:

- axborot texnologiyasi xaqida umumiylar ma’lumotga ega bo‘lish;
- kompyuter grafikasi haqida umumiylar ma’lumot berish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olinayotgan ma’lumotlarning qanday hosil qilinishi va ulardan foydalanish haqida ma’lumotlarni berish.

AMALIYOT MASHG‘ULOTLARNI O‘RGANISHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI BO‘YICHA QISQACHA QOIDALAR

Hurmatli talabalar“ “Axborot texnologiyalari” kafedrasiga ta’luqli fanlar professor-o‘qituvchilar tomonidan kompyuter sinflarida olib boriladi. Shu nuqtai nazardan fanlardan bajariladigan barcha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bevosita kompyuterlar yordamida bajarilib boriladi.

Kompyuterlar ham boshqa elektr jihozlari kabi elektr toki yordamida ishlaydi. Elektr toki esa juda ehtiyyotkorlik bilan ish ko‘rishni talab etadi.

Kompyuter sinflaridagi qurilmalardan noto‘g‘ri foydalanish yong‘in chiqishi, baxtsiz hodisalar ro‘y berishi va buning natijasida inson salomatligiga zarar yetishi hamda kompyuter jihozlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi noxush holatlarning oldini olish maqsadida xavfsizlik texnikasi qoidalari hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishingiz talab etiladi.

XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARI



- 1.O‘qituvchining ruxsatsiz o‘zboshimchalik bilan kompyuterlarni ishga tushirish;
2. Kompyuter xonasiga ustki kiyimlarda kirib o‘tirish;
3. Elektr toki manbalariga va ulanish simlariga tegish;

4. O‘zboshimchalik bilan kompyuterda sozlash ishlarini olib borish;
5. Kompyuter ekraniga qo‘l bilan tegish, ishlab turgan kompyuterlarda tozalash ishlarini olib borish;
6. Uzoq vaqt davomida ishlab turgan kompyuterlarni nazoratsiz qoldirish;



7. Kompyuter yonida boshqa elektr va isitish asboblaridan foydalanish;
8. Kompyuter yonida ovqatlanish, suv ichish;
9. Tez alanganuvchi buyumlar va qurilmalarning ichki elementlariga salbiy ta’sir etuvchi (kislotali, tarkibida xlor bo‘lgan) moddalarni olib kirish;
10. Klaviatura va kompyuter sich qonchasini ho‘l qo‘llar bilan boshqarish;
11. Klaviatura va «sichqoncha»dan foydalanganda kuch ishlatish;
12. Kompyuterni ruxsatsiz o‘chirib, ishni yakunlash ta’qilanganadi.




Kompyuterdan foydalanish jarayonida baxtsiz hodisalar ro‘y bermasligi va sog‘lig‘ingizga zarar yetmasligi uchun xavfsizlik texnikasi qoidalariга so‘zsiz rioya qilishingiz kerak!

SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI

Esda tuting, kompyuterda ishslash davomida kerakli talablarga rioya etmaslik inson salomatligiga katta zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, ko‘z, qon aylanish tizimi, bosh miya faoliyati, umurtqa pog‘onasi zaifl ashuvi va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi.

Bularning oldini olish hamda kompyuterda ishlash davomida salomatligingizga zarar yetmasligi uchun quyidagi talablarga rioya qilishingiz va ularni esdan chiqarmasligingiz kerak:



- kompyuter stolidan 20 sm uzoqlikda o‘tiring;
- ko‘zingiz kompyuter ekranidan 50–60 sm uzoqlikda bo‘lsin, har;
- 20–30 daqiqadan so‘ng ko‘zga dam berib turish va kompyuterda ishlash kuniga 180 daqiqadan oshmasligi zarur;
- yelka va qo‘l tirsagi orasidagi burchak 90–120° ni tashkil qilsin;
- kompyuter oldida o‘tirganingizda gavdangizni tik tuting;
- oyoq kaftingiz polga to‘laligicha tegib tursin;
- qo‘l kaftingizni va barmoqlaringizni erkin tuting;
- qo‘lingizni tanangizga yaqin masofada ushlang;
- tizza osti burchagi 90° ni tashkil qilsin.



Kompyuter oldida noto‘g‘ri o‘tirish umurtqa pog‘onangizda og‘riqlar paydo bo‘lishiga hamda tez toliqishingizga sababchi bo‘ladi.

Kompyuterdan foydalanishda sog‘lig‘ingizga zarar yetmasligi uchun ko‘z mashqlari va harakat mashqlarini bajarib turing!

1-mashq. Ko‘z mushaklarini 4 soniya qattiq yumib turing, so‘ngra ularni ochib, 6 soniya uzoqlarga tikilib turing. Bu mashqni 3–4 marta takrorlang.

2-mashq. Ko‘zlariningizni 4 soniya burun uchiga qarating, so‘ngra 6 soniya uzoqlarga tikilib turing. Bu mashqni ham 3–4 marta takrorlang.

3-mashq. Boshni burmagan holda ko‘zingizni oldin o‘ngga qarating va shu holatni biroz saqlab turing, so‘ngra ko‘zingizni to‘g‘riga qaratib, uzoqlarga 6 soniya tikilib turing. Xuddi shu mashqlarni ko‘zingizni chapga, pastga va yuqoriga qaratib bajaring. Mashqni 1–6 hisobda takrorlang.

4-mashq. Ko‘zni yuqori o‘ng qismidan diagonal bo‘ylab pastki chap qismiga o‘tkazing, so‘ngra uzoqlarga 6 soniya tikilib turing. Xuddi shunday usulda faqat ko‘zni yuqori chap qismdan pastki o‘ng qismiga o‘tkazing va 6 soniya uzoqlarga tikilib turing. Bu mashqni 3–5 marta takrorlang.

AMALIYOT HISOBOTI QOIDALARI

Amaliyot ishi kichik, ammo to‘liq tugallangan o‘quv ilmiy tadqiqotidir. Amaliyot ishi to‘g‘risidagi hisobot-bu maksimal to‘liqlik va xolislik bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi hujjat. Ilmiy-texnik hujjatlarni rasmiylashtirishga yagona talablар bo‘libadi. Ma’lum darajada, amaliyot ishi to‘g‘risidagi hisobot ushbu talablarga javob berishi kerak.

HISOBOTNI TAYYORLASHGA BO‘LILADIGAN TALABLAR

Hisobot standart o‘lchamdagи qog‘ozda (A4 formatida), matnning har ikki tomonida chekkalari bo‘lishi kerak. Hisobot materiallari aniq rubrikaga ega bo‘lishi kerak, har bir bo‘lim sarlavha bilan ta’minlanishi kerak.

Amaliyot ishi bo‘yicha hisobotning taxminiy tarkibi:

- * ishning maqsadi;
- * amaliyot ishlarini bajarish tartibi;
- * eksperimental tadqiqotlar va bajarilgan hisoblash jadvallari;
- * bajarilgan ishlar to‘g‘risida xulosalar.

AMALIYOT ISHLARINI O‘RGANISHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI BO‘YICHA QISQACHA QOIDALAR

Talaba amaliyot ishini bajarishda quyidagi qoidalarga rioya qilishi kerak:

1. Amaliyotda ishlaganda ozodalikka, saranjomlikka, tinchlikka va xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilish lozim.
2. Mashg‘ulot paytida talaba yakka o‘zi tajriba o‘rganish mumkin emas.
3. Tajribani o‘qituvchining ijozati bilan boshlash lozim.
4. Har bir amaliyot ishi uchun lozim bo‘lgan o‘lchagich va asboblar shu ishga tegishli joyda bo‘lishi kerak.
5. Amaliyot ishini bajarishda elektr quvvati zarur bo‘lganda undan foydalanish qoidalariiga amal qilish lozim.
6. Har bir amaliyot ishiga tegishli qurilma, asboblar laborant va o‘qituvchi tomonidan tekshirilishi kerak.
7. Har bir talaba o‘ziga topshirilib bajarilishi lozim bo‘lgan ish yonida bo‘lishi kerak.
8. Tajriba ishi tugatilgandan so‘ng talaba olingan amaliy natijalarini o‘qituvchiga ko‘rsatishi shart.

AMALIYOT XONASIDA DARSLARNING O‘TKAZILISH TARTIBI

Amaliyotda ishlash uchun talaba mustaqil holda asosiy darslik, ma’ruza materiallari va laboratoriya ishlari uchun belgilangan qo‘llanmalardan foydalanib, tayyorgarlik ko‘radi.

Ishni boshlashdan oldin talaba o‘qituvchiga ish tartibini va shu ishga doir nazariy ma’lumotlarni aytib berishi kerak. Talabaning javobi qoniqarli deb topilgach, o‘qituvchi unga tajribani bajarishga ruxsat beradi. Amaliyot ishi uchun alohida amaliyot daftari tutiladi. Daftarga tajriba davomida olingan ish natijalari o‘z vaqtida qayd qilinib boriladi.

Amaliyot daftari asosan quyidagi tartibda tutiladi:

- a) mashg‘ulot o‘tkazilgan kun, ishning tartib raqami va uning nomi;
- b) amaliyot ishiga ta’luqli qisqacha nazariy qismi;
- v) amaliyot ishni bajarishning qisqacha tafsiloti;
- g) ish bajariladigan qurilmaning chizmasi;
- g) olingan natijalar jadvalda qayd qilingan bo‘lishi kerak.

Ustuncha o‘lchashlar etarlicha yuqori aniqlikda o‘tkazilib, tajriba natijalarini oxirigacha hisoblab, o‘qituvchiga ko‘rsatiladi va o‘qituvchi o‘z jurnaliga hamda talaba daftariga tegishli belgini bo‘ladi.

1-AMALIYOT

Mavzu: San'at sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati

I. Ishning maqsadi: Talabalarda matnli, grafik, audio va video axborotlar hajmini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

II. Kutilayotgan natija: Talabalar matnli, grafik, audio va video axborotlar hajmini aniqlashga doir topshiriqlarni bajara oladi.

III. Kerakli jihozlar va materiallar: Ma'ruza matinlari, adabiyotlar, ma'ruza daftarlari, kompyuter vositasi.

IV. Ishning bajarilish tartibi:

- 1) Matnli axborotlar hajmini aniqlash.
- 2) Grafik axborotlar hajmini aniqlash.
- 3) Audio va video axborotlar hajmini aniqlash.

1) Matnli axborotlar hajmini aniqlash doir namunaviy misollar ko'rib chiqamiz:

1-misol. 100 sahifali kitobni 1 ta sahifasi 35 satrdan, har bir satri esa 50 ta belgidan iborat bo'ssin (1 ta belgi-1bayt). Kitobdagi axborot hajmini toping.

Yechish: Sahifa $35 \times 50 = 1750$ bayt axborotga ega. Kitobdagi axborot hajmi: $1750 \times 100 = 175000$ bayt.

$175000 / 1024 = 170,8984$ Kbayt.

$170,8984 / 1024 = 0,166893$ Mbayt.

2-misol. "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI" so'zida qancha bit yoki bayt axborot bor?

Yechish: Probel (bo'sh joy) bilan belgilar soni 42 ta; Demak berilgan so'zda $8*42=336$ bit yoki 42 bayt axborot bor.

1) misol. ASCII kodlash tizimida: Matndagi belgilar soni $K = 10218$
Bitta belgining axborot o'lchami = 1bayt

Matning axborot hajmi $I = K \cdot i = 10218 \times 1 = 10218$ bayt Bitta belgining axborot o'lchami $i = 8$ bit
 $N = 2^i = 2^8 = 256$ alfavit quvvati

2) Unicode kodlash tizimida:
Matndagi belgilar soni $K = 10218$

Bitta belgining axborot o'lchami = 2 bayt

Matning axborot hajmi $I = K \cdot I = 10218 \times 2 = 20436$ bayt Bitta belgining axborot o'lchami $i = 16$ bit
Alfavit quvvati $N = 2^i = 2^{16} = 65536$

1) Matnli axborotlar hajmini aniqlash doir namunaviy misollar ko'rib chiqamiz:

1-misol. Quyidagi jadvalda har bir nuqta uchun rang chuqurligi berilgan monitor ekranining turli xil grafik rejimlari uchun video xotirasini aniqlang.

Ekran rejimi	Rang chuqurligi (bir nuqtaga bit)				
	4	8	16	24	32
640 ga 480					
800 ga 600					
1024 ga 768					
1280 ga 1024					

Yechilishi: Ekrandagi umumiy nuqtalar soni (o'lcham kattaligi): $640 * 480 = 307200$, zarur bo'lgan video xotira $V = 4 \text{ bit} * 307200 = 1228800 \text{ bit} = 153600 \text{ bayt} = 150 \text{ Kb}$ yotib bo'ladi. Xuddi shunday, boshqa grafik rejimlari uchun ham video xotira miqdori hisoblanadi.

2-misol. Oq-qora ekranda bitta piksel xotirada qancha joy egallaydi?

Yechilishi: Agar oq-qora tasvirda ikkita rang ishlataladi –qora va oq, yani.

$K=2$, $2^i = 2$, $i = 1$ bit

3-misol. Qora-oq raster grafikali tasvir hajmi kattaligi $10x10$ nuqta. Ushbu tasvir qanday kattalikdagi xotirani egallaydi?

Yechilishi: Nuqtalar soni - 100 ta, 2 xil rang qora va oq bo'lganligi uchun rang chuqurligi $i=1$ ($2^1 = 2$), natijada video xotira hajmi $100*1=100$ bit teng bo'ladi.

4-misol. Rastr grafikdagi $128x128$ piksellari tasvirni saqlash uchub 4 KB xotira ajratildi. Tasvir palitrasidagi ranglar soni ko'pi bilan qancha bo'lishi mumkin?

Yechilishi:

- Tasvirdagi nuqtalar sonini $128*128=16384$ ta.
- Tasvirning hajmi 4 Kb ni bitga o'giramiz, chunki $V=i*X*Y$ bitda hisoblanadi, $4\text{Kb}=4*1024=4096$ bayt = $4096*8$ bit = 32768 bit
- Rang chuqurligi $i = V/(X*Y) = 32768:16384 = 2$ bit
- $N=2^i$, bu yerda N – palitradagi ranglar soni, natijada $N=4$ bo'ladi.

5-misol. Agar to'rtburchakli tasvirning bit chuqurligi 24 va ekran o'lchamlari 800×600 piksel bo'lsa, to'itta to'rtburchakli tasvir video xotirada qancha joy egallaydi?

Yechilishi: Bitta to'rtburchakli tasvir hajmini aniqlaymiz: $800*600*24=11520000$ bit = 1440000 bayt = $1406,25 \text{ Kb} \approx 1,37 \text{ Mb}$. 4 ta to'rtburchakli tasvirni saqlash uchun $V=1,37*4 = 5,48 \text{ Mb} \approx 5.5 \text{ Mb}$ bo'ladi.

6-misol. High Color tasvir sifati 1024×768 nuqta va ranglar palitrasи 65536 rangdan iborat. Kerak bo'ladigan video xotira miqdorini aniqlang.

Yechilishi: Formula bo'yicha $K=2^i$, bu yerda K – ranglar miqdori, i – rang chuqurligi, rang chuqurligini aniqlaymiz. $2^i = 65536$

Rang chuqurligi: $i = \log_2 65536 = 16$ bit

Tasvir nuqtalari soni: $1024 \times 768 = 786\,432$ ga teng

Kerak bo'ladigan video xotira miqdori: $16 \text{ bit} \times 786\,432 = 12\,582\,912 \text{ bit} = 1572864 \text{ bit} = 1536 \text{ Kb} = 1,5 \text{ Mb}$ bo'ladi.

7-misol. Rastrli grafigini konvertatsiya qilish jarayonida ranglarning soni 65536 dan 16 gacha kamaydi. Xotira miqdori necha marta kamayadi? *Yechilishi:* 65536 turli ranglarni kodlash uchun $i=16$ bit va 16 rangni kodlash uchun $i=4$ bit bo'ladi. Natijada, ishlataligan xotira miqdori $16: 4 = 4$ marta kamaydi.

Javob: 4 marta kamayadi.

1) *Audio va video axborotlar hajmini aniqlash doir namunaviy misollar ko'rib chiqamiz:*
Talaba quyidagi savollarni bilishi shart.

1. Tovush nima?
2. Tovush diskretizatsiya chastotasi nima?
3. Kodlash chuqurligi nima?
4. Tovush oqimi nima?

Audio axborotning miqdori (V) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V=t \cdot ch_d \cdot k \cdot p$$

bu erda t - vaqt (sekund), ch_d - diskretizatsiya chastotasi (Gts), k - kodlash chuqurligi (bit), p - tovush oqimi (1-mono, 2-stereo, 4-kvadro).

Endi misollar orqali batafsil tanishib chiqamiz:

1-Misol. O'rtacha sifatdagi tovush chastotasi 24 kGts, kodlash chuqurligi 16 bit bo'lgan 1 minutlik monoovozning miqdorini aniqlash so'ralgan bo'lsin. U holda quyidagicha hisoblaymiz:

$$t=1 \text{ minut}=60 \text{ sekund}; ch=24$$

$$kGts=24000 \text{ Gts}; k=16 \text{ bit};$$

$$V=?$$

$$V = 60 \cdot 24000 \cdot 16 \text{ bit} \cdot 1 = 23040000 \text{ bit} = 2880000 \text{ bayt} = 2812,5 \text{ Kbayt} = 2,75 \text{ Mbayt}$$

2-Misol O'rtacha sifatdagi tovush chastotasi 24 kGts, kodlash chuqurligi 16 bit bo'lgan 1 sekundlik stereoovozning miqdorini aniqlash so'ralgan bo'lsin:

$$V = 1 \cdot 24000 \cdot 16 \text{ bit} \cdot 2 = 768000 \text{ bit} = 96000 \text{ bayt} = 93,75 \text{ Kbayt bo'ladi.}$$

Video axborotlarni o'lchash:

Talaba quyidagi savollarni bilishi shart.

1. Videofayl nima?

2. Qanday video format bilasiz va farqli jihatlarini bilasiz?

Endi video axborotni o'lchashgadoirnamunaviy misollarni ko'rib chiqamiz. Ovozsiz video axborotlarni hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_{\text{video}} = H \cdot W \cdot i \cdot cht \cdot t$$

V_{video} -Videoaxborot hajmi

H, W -tasvir bo'yisi va eni bo'yicha o'lchamdagagi piksellar soni

i -rang chuqurligi

cht - tasvir chastotasi (sekund)

t -vaqt(sekund)

1-misol. 1 sekundda video chastota tezligi 25 ta tasvir, rang chuqurligi 16 bit va tasvir o'lchami 320×576 bo'lgan videoaxborotning 1sekundagi hajmini toping. Berilishi:

$H \times W = 320 \times 576$ piksellar sonii=16 bit

$cht=25$ sekund/tasvir $t=1$ sekund

$V=?$

Yechishi:

$$V = H \cdot W \cdot i \cdot ch_t \cdot t = 320 \cdot 576 \cdot 25 \cdot 16 \cdot 1 = 73728000 \text{ bit} / 8 / 1024 / 1024 = 8,79 \text{ Mbayt} \text{ (javobi: } 8,79 \text{ Mbayt) bo'ladi}$$

2-misol. 3 sekundda video chastota tezligi 60 ta tasvir, rang chuqurligi 2 bayt va tasvir o'lchami 600×540 bo'lgan videoaxborotning 1sekundagi hajmini toping (Kbayt).

Berilishi:

$H \cdot W = 600 \cdot 540$ piksel $i=2$ bayt=16 bit $cht=60/3=20$ sekund/kadr $t=1$ sekund

$I=?$

Yechishi:

$$I = H \cdot W \cdot i \cdot ch_t \cdot t = 600 \cdot 540 \cdot 2 \cdot 20 \cdot 1 = 103680000 \text{ bit} / 8 / 1024 = 12656,25 \text{ Kbayt bo'ladi.} \quad (\text{javob: } I=12656,26 \text{ Kbayt})$$

Ovozli video axborotlarni hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_{\text{videovoz}} = V_{\text{video}} + V_{\text{voz}}$$

$$V_{\text{voz}} = ch_d \cdot i \cdot p \cdot t$$

V_{voz} - ovozli video hajmi

ch_d - diskretizatsiya chastota (Gts) i - rang chuqurligi

t - vaqt(sekund)

p - parallel oqimlar soni(1-mono, 2-stereo, 4-kvadro)

1-misol. Tasvir o'lchami 1024x800 piksel, rang chuqurligi 8 bit, tezlik sekundiga 24 ta tasvir, stereoovoz 128 gromka daraja va diskretizasiya chastotasi 10150 Gts teng bo'lgan 1 minutlik ovozli videoaxborot hajmini toping.

Berilishi:

V_{video} :

$$H \cdot W = 1024 \cdot 800 \text{ piksel } i = 8 \text{ bit}$$

$$ch_t = 24 \text{ sekund/tasvir } t = 1$$

minut=60 sekund V_{voz} :

$$ch_d = 2$$

$$p = 128 \rightarrow i = 2^7 = 7 \text{ bit}$$

$$ch_o = 10150 \text{ gts}$$

$$t = 1 \text{ minut} = 60 \text{ sek.}$$

$V_{\text{videovoz}} = ?$

Yechishi:

$$V_{\text{video}} = 1024 \cdot 800 \cdot 8 \cdot 24 \cdot 60 = 9437184000 \text{ bit} \quad V_{\text{voz}} = 10150 \cdot 7 \cdot 2 \cdot 60 = 8526000 \text{ bit}$$


$$V_{\text{videovoz}} = 6553600 \cdot 24 \cdot 60 + 8526000 = 9445710000 \text{ bit bo'jadi.}$$

V. Xulosa: Talabalar matnli, grafik, audio va video axborotlar hajmini aniqlashga doir topshiriqlarni bajara oladi ularning o'lchamlari tuzulishi berilishi ularni kodlash usullarini aamaliyotga qo'lay oladi.

Amaliyot topshiriqlari

1. 110 sahifali kitobni 1 ta sahifasi 40 satrdan, har bir satri esa 60 ta belgidan iborat bo'lsin (1 ta belgi-2 bayt). Kitobdagi axborot hajmini toping.

2. Paint grafik muharririda ixtiyoriy BMP formatdagi rangli tasvirni oching. Ushbu rasmni kodlashning turli usullarida saqlang (Monochrome Bitmap, 16 Color Bitmap, 256 Bitmap, 24-bit Bitmap). Dasturni yoping va fayllar saqlangan papkaga o'ting. Saqlangan fayllarning o'lchamlarini taqqoslang va ular orasidagi farqning sababini izohlang.



3. Ekranda 8 palitra rangli tasvir bitta pikseli xotirada qancha joy egallaydi?
4. Qora-oq raster grafikali tasvir hajmi kattaligi 12 x13 nuqtadan iborat. Ushbu tasvir qanday kattalikdagi xotirada joyni egallaydi?
5. Rastr grafikdagi 64x64 piksellı tasvirni saqlash uchub 2 KB xotira ajratildi. Tasvir palitrasidagi ranglar soni ko'pi bilan qancha bo'jadi?
6. Agar to'rtburchakli tasvirning bit chuqurligi 32 bit va ekran o'lchamlari 800 x 600 piksel

bo'lsa, ikkita to'rtburchakli tasvir video xotirada qancha joy egallaydi?

7. High Color tasvir sifati 800 x 600 nuqta va ranglar palitrasи 65536 rangdan iborat. Kerak bo'ladigan video xotira miqdorini aniqlang.

8. Rastrli grafikni konvertatsiya qilish jarayonida ranglarning soni 65536 dan 256 gacha kamaydi. Xotira miqdori necha marta kamayadi?

9. O'rtacha sifatdagi tovush chastotasi 16 kGts, kodlash chuqurligi 24 bit bo'lgan 2 minutlik kvadrovozning miqdorini aniqlang.

10. O'rtacha sifatdagi tovush chastotasi 30 kGts, kodlash chuqurligi 16 bit bo'lgan 3 sekundlik monoovozning miqdorini aniqlang.

11. 2 sekundda video chastota tezligi 30 ta tasvir, rang darajasi 24 bit va tasvir o'lchami 600x800 bo'lgan videoaxborotning 2 sekundagi hajmini toping.

12. 1 minutda video chastota tezligi 120 ta tasvir, rang chuqurligi 1 bayt va tasvir o'lchami 320x400 bo'lgan videoaxborotning 2 sekundagi hajmini toping.

13. Tasvir o'lchami 600x740 piksel, rang chuqurligi 16 bit, tezlik sekundiga 20 ta tasvir, kvadrovoz 64 gromka daraja va diskretizasiya chastotasi 9150 Gts teng bo'lgan 3 sekundlik ovozli videoaxborot hajmini toping.

14. 16 gb fleshkaga qo'shiq yozilgan. Tasvir o'lchami 900x800 piksel, rang chuqurligi 16 bit, tezlik sekundiga 16 ta kadr, ovoz darajasi 256 va chastotasi 650 Gts bo'lgan kvadro usilida yozilgan 3 minutlik qo'shiq nechtagi va hajmini aniqlang.

VI. Adabiyotlar ro'yxati:

1. T.X.Xolmatov, N.I.Taylaqov, U.A.Nazarov. "Informatika va hisoblash texnikasi" Toshkent, 2001
2. U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiev, F.M.Zokirova."Informatika". Toshkent, 2002
3. Axborot tizimlari va texnologiyalari: oily o'quv yurtlfri talabalari uchun darslik / mualliflar jamoasi: S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, X. S. Lutfullayev va boshq.; S.S.G'ulomovning umumiyl taxriri ostida. – T.: "Sharq", 2000
4. A.A.Abduqodirov, A.G'.Xayitov, R.R.Shodiev. "Axborot texnologiyalari". Toshkent, 2002

2-AMALIYOT


Ta'limiy resuslarga qo'yiladigan talablar. San'at sohasiga oid dasturiy vositalar

Mashg'ulotning maqsadi: San'at sohasiga oid dasturiy vositalar bilan tanishish. Audio fayllar yaratish, mavjudlariga ishlov berish ko'nikmasini hosil qilish.



Sound forge dasturida audio fayllarga ishlov berish

Dastlab Sound forge – dasturini ishga tushiramiz. Buning uchun piktogramma yoki "Пਯцк" yordamida. Natijada quyidagi oyna



hosil bo'ladi. Oynaning "файл" menyusidan yoki tugmasidan audio faylni yuklab olamiz, shunda audio fayl bilan ishlash oynasini hosil qilinadi.



Bu oynadan musiqaning ixtiyoriy qismini belgilab, olib tashlash yoki nusxalash mumkin bo‘ladi. Buning uchun shu aydio faylning ixtiyoriy qismiga ko‘rsatkichni olib boramiz va uni qo‘yib yubormasdan chap yoki o‘ng tomonga yetarlicha suramiz. So‘ngra o‘chirish uchun “Delete”

tugmasini va nusxalash uchun tugmani bosib tugma orqali kerakli joyga qo‘yiladi, yoki “Ctrl+C” va “Ctrl+V” tugmalar birikmasini ketma –ket bosish orqali bajariladi. O‘chirish(olib tashlash):



Nusxalash:




Hosil qilingan audio fayl “Файл” menyusidan “Сохранить как...” yordamida saqlanadi.

Amali mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1 - topshiriq Windows operatsion tizimidagi ovoz yozish standart dasturini foydalananish

1. Quyidagi ketma – ketlikni bajaring “Пуск” – “Фсе программы” – “Стандартные” – “Звукозапись”;




2. Kerakli sozlanmalarni bajaring;

3. tugmanisini bosing, ingliz tilidagi biror tekstni o'qing va natijani saqlang.


2 – topshiriq. Dasturni ishga tushirish va uni sozlash

1. Sound forge – dasturini ishga tushiring: pictogrammani ikki marta bosing.

2. Ishchi oynaning menyular qatoridan “Вид” ni tanlang va kerakli sozlanmalarni bajaring. “Панель инструментов” dan “Стандартная”ni tanlang.




3. “Стандартная” menyusidan - tugma orqali biror audio faylni belgilang va “Открыть” ni tanlang.




3 – topshiriq. Ovoz yozish

1. Instrumentlar panelidan tugmani tanlang.



2. Instrumentlar panelidan tugmani tanlang va hosil bo‘lgan oynadan **Новые...** tugmani tanlab “Частота опроса” – 48 000, “Число бит” – 32 бит, “Каналы” – 4 kabi sozlashlarni bajarib “Ok” ni tanlang. tugmani tanlab ovoz yozishni boshlang.




3. Ingliz tilidagi biror tekstni o‘qing va natijani saqlang.

4 – topshiriq. Audio fayldan ma’lum qismini qirqib tashlash va nusxalash

1. Sound forge – dasturini ishga tushiring: tugmasini ikki marta bosing.

2. “Стандартная” menyusidan - tugma orqali biror aydio faylni belgilang va “Открыть” ni tanlang.



3. Ochilgan audio faylning kerakli joyini belgilang. Buning uchun kerakli joyga kursorni qo‘yamiz va ko‘rsatkichni qo‘yib yubormasdan chapga yoki o‘ngga siljiting.



4. “Delete” tugmasini bosish orqali belgilangan qismi o’chiriladi.

5. Belgilangan qismini tugma orqali nusxalab, tugma orqali kerakli joyga nusxasi qo‘yiladi.

Blits-so’rov savollari:

1. Windows muhitidagi ovoz yozish dasturidan qanday foydalaniladi?
2. Audio fayllarga ishlov beruvchi zamонавиу таррилагичлардан misollar keltiring.
3. Android va iOS muhitida ishlovchi aydio tahrirlagichlardan sanang

3-AMALIYOT

Mavzu: Matn muxarrirlarida xujjatlar yaratish

Maqsad: MS WORD dasturi ishlashni o‘rgatish.

Texnik va dasturiy ta’minati: Kompyuter, Windows OT va Microsoft Word dasturi.

Amaliy mashg‘ulot rejasি:

1. Microsoft Word ni yuklash usullari. Microsoft Word oynasini tuzilishi.
2. Menyular va qurollar panelidan foydalanib hujjatlarni yaratish, ochish va saqlash.
3. Hujjatning asosiy parametrini o‘rnatish.


Amaliy mashg‘ulot mavzu bayoni:

1. Microsoft Word ni yuklash usullari. Microsoft Word oynasini tuzilishi.

Microsoft Word ni yuklash usullari quyidagicha:

1. Пуск → Все Программы → Microsoft Office → Microsoft Word ;
2. Пуск → Все Программы → Документы → hujjathi fayl yordamida;

3. Qidirish yordamida Пуск → Найти(Поиск) yordamida
4. Masalalar paneli → belgisi yoki Пуск → Выполнить Winword → OK;
5. Ishchi stol → Kontekst menyu → Создать → Документ Microsoft Word;
6. Funksional tugmalar yordamida.



Microsoft Word 2010 oynasining tuzilishi quyidagicha: Sarlavha satri, Menyular satri, Qurollar paneli, Chizg'ich(Линейка)lar sohasi, Gorizontal va vertical aylantirgich(прокрутки)lar, matn maydoni(ishchi maydon), holat satri.

2. Menyular va qurollar panelidan foydalanib hujjatlarni yaratish, ochish va saqlash.

Yangi hujjatni oynasini yaratishning quyidagi usullari mavjud.

1. Файл → Создать → Новый документ

2. Qurollar panelidan Стандартная →

3. Klaviaturadan Ctrl+N funksional tugmalari orqali

Mavjud faylni ochish.

1. Файл → Открыть → Kerakli fayl tanlanadi → Ok;

2. Qurollar panelidan Стандартная → → Kerakli fayl tanlanadi → Ok

3. Klaviaturadan Ctrl+O → Kerakli fayl tanlanadi → Ok orqali;

Joriy hujjatni saqlash.

1. Файл → Сохранить yoki Сохранить как → fayl ga nom berib Сохранить


2. Qurollar panelidan Стандартная →

3. Klaviaturadan Ctrl+S yoki Shift +F12 tugmalar orqali bajarish mumkin.

Agar Стандартная qurollar paneli mavjud bo'lmasa qurollar paneli joylashgan satrga sichqonchaning Kontekst menyudan Стандартная ni tanlash yoki Asosiy menyudan Вид → Панели инструментов → Стандартная tanlash mumkin. Hujjat chegara chiziqlarini qo'yish uchun menyudan Сервис → Параметры → Границы текста. Lineykani esa Вид → Линейка tanlash mumkin.

3. Hujjatning asosiy parametrini o'rnatish.

Hujjatning asosiy parametrini o'rnatish uchun Файл → Параметры Страницы.. buyrug'ini tanlash yoki lineykani faol bo'lмаган qismiga sichqonchani chap tugmasini tez 2 marta ketma-ket bosilsa quyidagi muloqot oyna paydo bo'ladi.



Bu muloqot oynalar yordamida sahifa o‘lchamlari, orientatsiyasi, qog‘oz formati, sahifani bo‘lish kabi amallar bajarish mumkin.

Topshiriqlar:

1. MS Wordni yuklash usullarini ko‘rsating.
2. Yangi hujjat oynasini yarating.
3. Oynaga Tarjimai holingizni yozing.
4. Hujjatga turli grafiklarni va hujjat ramkalarini o‘rnating.
5. Hujjatdan jumla qidirish, almashtirish, hujjatdagi kerakli sahifaga o‘tish usulini ko‘rsating.
6. Hujjatning parametrini o‘zgartiring.
7. Hujjatni saqlash usullarini ko‘rsating (Menyular, piktografik va funksional tugmalar orqali).
8. Hujjatning mashtabini o‘zgartiring (Menyular, piktografik va funksional tugmalar orqali).
9. Hujjatni nomerlang va hujjatni oldindan ko‘rishni ko‘rsating.
10. Hujjatni chop eting.(1 sahifa, 2 sahifali, 3-sahifani 2 nusxada, ajratilgan qismini, sahifa ketma-ketligi bo‘yicha, hammasini).

4-AMALIYOT

Mavzu: Microsoft Word dasturida ob’yektlar bilan ishlash

I. Ishning maqsad: MS Word dasturida grafik obyektlar bilan ishlashni o‘rgatish.

II. Kerakli jihozlar: Kompyuter, Windows_10 operatsion tizimi, Microsoft office 2016 Word ilova paketi.

III. Ishni o‘rganish tartibi: Talabalarda MS Word dasturida grafik obyektlar bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi.

1. Grafik ob’ektlar bilan ishlash (WordArt, Paint).

Grafik ob’ektlar bilan ishlash (WordArt, Paint)

Hujjatga grafiklarni joylashtirish quyidagicha:

1) “Vstavka”→ “Risunok”→ “Kartinki, Iz fayla.. , Avtofigura, Ob’ekt WordArt”;


2) Qurollar panelidan → “Risovanie”; “WordArt”;

3) Funksional tugmalar yordamida: Crtl+Print Screen, Crtl+C, Crtl+Insert, Shift+Insert, Crtl+V, Kontekst menyudan Kopirovat, Vstavit;

Tasvirlarni guruhlash uchun dastlab birinchi grafikni keyin **Shift** tugmasini bosgan holda navbatdagi tasvirlarni sichqoncha ko‘rsatkichini tanlash orqali belgilab olib, Kontekstmenyu→Gruppirovat→Gruppirovka orqali bajarish mumkin.

Hujjatga grafik muharriri yuklash quyidagicha:

Vid→ Paneli instrumentov→ Risovanie:



Tasvirni formatini berish uchun tasvir ustiga olib kelib o'ng tugmasini bosiladi kontekstmenyu → Format risunka yoki bosh menyudan Vstavka → Risunok buyrug'i beriladi.

Amaliyot ishlarini o'rganish qoidalari va xavfsizlik choralarini

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

V. Xulosa: Talabalarga matnli axborotlarni ishlashda fayillarni kengaytmalari xaqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Tabiatdagi tuyoqli hayvonlar tasvirini kolleksiyadan joylashtiring. Tasvir o'lchamini o'zgartiring.

Amaliyot topshiriqlari

1. Hujjatga *.jpg kengaytmali grafikli fayllarni joylashtiring.
2. Joylashtirgan rasmi formatini o'zgartiring.
3. Tabiatdagi tuyoqli hayvonlar tasvirini kolleksiyadan joylashtiring.
4. Tasvir o'lchamini o'zgartiring.
5. Tasvirlarni guruuhlang.
6. Ixtiyorli tasvirni matn orqasiga joylashtiring.
7. Tekislikdagi geometrik figuralarni chizing.
8. Fazodagi geometrik figuralarni chizing.

VI. Adabiyotlar:

1.T.X.Xolmatov, N.I.Taylaqov, U.A.Nazarov. "Informatika va hisoblash texnikasi" Toshkent, 2001

2.U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiev, F.M.Zokirova. "Informatika". Toshkent, 2002

3.Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oily o'quv yurti talabalari uchun darslik / mualliflar jamoasi: S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, X. S. Lutfullayev va boshq.; S.S.G'ulomovning umumiyl taxriri ostida. – T.: "Sharq", 2000

4.A.A.Abduqodirov, A.G'.Xayitov, R.R.Shodiev. "Axborot texnologiyalari". Toshkent, 2002

5-6-AMALIYOT

Mavzu: MS Access dasturida sohaga oid ma'lumotlar bazasini yaratish.

Maqsad: Talabalar Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bilan ishlash va mutaxassislikka oid ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasini shakllantirishni o'rganish.

Mashg'ulot jixobi: Shahsiy kompyuter, MS Access dasturi, adabiyotlar va internet resurslari.


Nazariy qism

Microsoft Office Access dasturining asosiy vazifasi axborotni bosgqarishdir. Axborotlar jadval deb ataluvchi alohida ro'yhatlarda saqlanadi. Bitta jadvalda saqlanayotgan axborot boshqa jadvallardagi axborotga aloqador bo'lishi mumkin. Bu axborot guruhlari bir butun debqaralganda ma'lumotlar bazasiga aylanadi.

Ma'lumotlar bazasi obyektlari

Ma'lumotlar bazasining jadval, forma, hisobot kabi obyektlarni yaratishdan avval bir qator masalalarni hal qilish kerak. Masalan struktura dizaynini yaratishga e'tibor berish kerak. Yaratilgan dizayn qanchalik yaxshi bo'lsa, sizning ilovangiz shunchalik yaxshi chiqadi. Bu esa ma'lumotlar bazasi tizimini to'ldirishda qulayliklar yaratadi. Ma'lumotlar bazasini yaratishdan oldin asosiy konsepsiyanini tushunib olish zarur. Ma'lumotlar bazasiga kirishda yuqoru sathli 6 ta obyektdan foydalaniladi. Ular Access da ishlatiladigan ma'lumotlar va asboblardan tashkil topgan:

- Table – haqiqiy ma'lumotlardan iborat;
- Query - izlash, saralash va aniq ma'lumotlar olish uchun ishlatiladi;
- Form-ma'lumotlarni kerakli formatda kiritish va aks ettirish imkonini beradi;
- Report- ma'lumotlarni berilgan fomatda aks ettiradi va chop etadi;
- Macros- dastur tuzmasdan masalalarni avtomatlashtiradi;
- Module- Visual Basic dasturlash tili operatorlaridan tashkil topgan.



5.1-rasm. MS ACCESS dasturining asosiy obyektlari

1- mashq.

MS Access interfeysining asosiy obyektlarini o'rganish.

MS Access ilovasi yuklanganda ekranda asosiy oyna paydo bo'ladi. Ma'lumotlar bazasi uchun kerakli shablon tanlanadi va unga nom beriladi. Ilova oynasi quyidagi ko'rinishga keladi:



5.2-rasm. MS Access interfeysi

Access dasturidagi asosiy o‘zgarishlardan biri menu olib tashlanganligidir. Menyu bo‘limlari o‘rniga lentadagi harakatlarni tanlash uchun Access bo‘limlarni boshqarishni intuitiv tizimini taklif qiladi. Har bir bo‘lim o‘ziga biriktirilgan buyruqlar guruhidan tashkil topgan. Buyruqlar lentada qayd qilingan. “Главная” lentasi bo‘limlarini ko‘rib chiqamiz. Bo‘lim nomining pastki qismida Microsoft "лента" deb ataydigan buyruqlar ro‘yhati joylashgan:




5.3-rasm. Asosiy lenta

Asosiy lenta turi ikkita: umumiy foydalaniladigan (yoki buyruqlar) va kontekst. Umumiy lentalar va mos bo‘limlar ma’lumotlar bazasi fayli bilanishlash jarayonida ko‘rinib turadi:


Home Create External Data Database Tools

Azboblarga murojaatni tez amalga oshirish panelida asosan uchta tugma bo‘ladi. Lekin tahrirlash orqali ko‘p ishlataladigan tugmalarni ham panelga joylashtirish mumkin. Tez murojaat paneli oldidagi ostki menyu bo‘limlari yordamida asboblar panelinini sozlash, ya’ni unga ko‘p ishlataladigan buyruqlar qo‘sish imkonи mavjud.



5.4-rasm. Asosiy menu

Ekranning pastki qismidagi holatlar satrida turli axborotlar aks etadi. Chap tomonda siz ishlatalayotgan ko‘rinish turini aks ettiruvchi indikator, o‘ngda dizaynni o‘zgartiruvchi tez murojaat tugmalari joylashgan.



5.5-rasm. Holatlar satri

Accessda kontekst bo‘limlar ham qo‘shilgan. “Поля” va “таблицы” deb belgilangan bo‘limlar jadvalning asosiy asboblari hisoblanadi va ular таблица rejimida jadval tanlangandagina paydo bo‘ladi. Bu bo‘limlar joriy oynada ishlataluvchi yanada aniq buyruqlardan tashkil topishi mumkin va ular jadval faol bo‘lgandagina ko‘rinadi.

Ko‘pgina buyruqlar ishlatalish uchun tanlanganda quyidagi ko‘rinishdagi izoh paydo bo‘ladi:



5.6-rasm. Split Form buyrig‘i izohi

2- mashq.

Ikkita jadval yarating: talaba haqida ma’lumot va talaba o‘zlashtirishi.


a) Shablon ishlatalish orqali.

Shablon ishlatalish uchun:

- Asosiy oynada kategoriya tanlanadi. Maqsadga erishish uchun ishni asosiylardan boshlaymiz. Access 2010 da kontaktlarning oddiy ma'lumotlar bazasi mayjud.
3.Bulutli texnologiyalar elektron kundalikni yaratish va har qanday yozma topshiriqlarni uzatish uchun ishlatilishi mumkin. Bu uy mакtabiga boradigan yoki biron bir sababga ko‘ra darslarni o‘tkazib yuboradigan bolalar uchun juda yaxshi tanlovdir.

Biznes uchun bulutli hisoblash

Ishbilarmonlar bulutdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

1.Virtual server ijaraga olingan, shuning uchun menejer provayderga qaramasdan barcha joylashgan xizmatlarni to‘liq boshqarishi mumkin.

2.Tarmoqda virtual aloqa markazini yaratish juda oson, shuning uchun siz xonani ijaraga olish va ish joylarini tashkil qilishda tejashingiz mumkin. Ish ariza provayderga topshirilgandan keyin ikki kundan keyin boshlanishi mumkin.

3.Biznes uchun bulutli xizmatlar virtual ofisni yaratish uchun ishlatiladi, ya’ni ish joyi ma’lum bir kompyuter bilan bog‘lanmaydi. "Bulut" da kompaniyaning ichki tarmog‘i takrorlanadi, ya’ni disklar, papkalar va rejalashtirish uchun dasturlar mavjud.

Amaliy topshiriqlar:

1. Ta’limda qanday bulutli texnologiyalar qo‘llaniladi misollar keltiring!
2. Bulutli texnologiyalar afzalliklarini sanab o‘ting!
3. Bulutli texnologiyalar kamchiliklarini sanab o‘ting!
4. Bulutdagagi noqulayliklar nimalardan iborat?
5. Bulutli dastur nima?
6. Bulutli ta’lim nima?
7. Biznes uchun bulutli hisoblashlarni sanab o‘ting!

11-AMALIYOT

Mavzu: Google classroom xizmatidan foydalanish

Nazariy qism:

Google Classroom – o‘quv jarayonini tashkil qilishdagi bulutli platformadir. Platforma o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba)lar hamkorligiga asoslangan ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Google Classroom o‘quv jarayonini tashkil qilishning keng imkoniyatini taqdim etadi: Google Classroom xizmatida avtorizatsiyadan o‘tish va o‘z o‘quv kursini yaratish, fanlar bo‘yicha turli kurslarni qo‘sish, o‘quvchi (talaba)larni sinf (kurs)ga taklif qilish, sinfda topshiriqlar yaratish, baholash va baholangan topshiriqlarni o‘quvchi (talaba)larga qaytarish. Google Classroom bilan ham individual, ham jamoaviy turli ta’lim faoliyatini tashkil qilish mumkin. Google Classroom platformasidan foydalanish ta’lim mazmunini yangilashga, pedagogik usullarni kengaytirishga, tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasini joriy etishga, shuningdek, masofaviy o‘qitishni tashkil etishga yordam beradi.

Yangi ta’lim standartlari joriy etilishi bilan, muammolar ham o‘zgardi: talabani individual ta’lim yo‘nalishi va o‘quv muhitini kengaytirishga yo‘naltirishda o‘qituvchi uchun taqdim etiladigan materiallar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi o‘zi muallif va dasturchi bo‘lishi kerak. Muammolarni ajratib ko‘rsatish kerak:

- o‘qituvchi tarmoq xizmatlari bilan ishlashda etarlicha vakolatlarga ega emas;
- o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zları yaratgan mahsulotlarni o‘zaro almashish juda kam yo‘lga qo‘yilgan;
- o‘qituvchilardan iborat bo‘lgan kichik guruhlarda loyihamiylar masalalarini hal qilish tajribasi mavjud. Muammo shundaki, bu o‘qituvchilar guruhi doimiy bir xil tarkibdan iborat va hamkorlik uchunboshqa o‘qituvchilarni alb qilish imkon yo‘q;
- aksariyat o‘qituvchilar o‘quv materiallarini ishlab chiqishdagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda kam yoki umuman tajribaga ega emaslar;

Maqsad:

- o‘qituvchi faoliyatida Google xizmatlaridan foydalanishni ko‘rib chiqish;
- Internet xizmatlari va Google Classroom xizmatlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini modellashtirish;
- Google xizmatlaridan o‘quv guruhlari a’zolari bilan birgalikda foydalanishni ko‘rib chiqish;

Ko‘rsatma asosan, o‘qituvchilarga mo’ljallangan bo‘lib, Google Classroom bulutli ta’lim platformasidan foydalanishda asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

GOOGLE CLASSROOM IMKONIYATLARI

Google texnologiyasining mohiyati talabalarni nafaqat ta’lim tarkibini iste’molchilari sifatida, balki uning faol ijodkorlari sifatida o‘quvchining pedagogik jarayonning markazida bo‘lishiga yordam beradi.

Google korporatsiyasi Internetga ulangan har qanday brauzerdan kirish mumkin bo‘lgan ko‘plab dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va taqdim etadi. Ta’lim sohasida eng ko‘p ishlatiladiganlar quyidagi Google xizmatlari mavjud:

- Google Calendar - onlayn kalendar,
- Google Docs - onlayn matn muharriri,
- Gmail - bepul elektron pochta,
- Google Maps - onlayn xaritalar to‘plami,
- Google Sites - vikitexnologiyalarni qo‘llovchi bepul xosting,
- Google Translate - onlayn tarjimon ilova,
- YouTube - videoxosting.

Mazkur Google ilovalari talabalar va o‘qituvchilarga samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Foydalanuvchilarning nuqtai nazari bo‘yicha ta’limda Google xizmatlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari:

- Texnik ta’minotga minimal talablar (birgina talab - Internet tarmog‘iga ulanish);
- Google texnologiyasi maxsus dasturlarni sotib olish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini talab qilmaydi;
- Google barcha operatsion tizimlar va mijoz dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi;
- Googlening barcha ilovalari bepul.

Google Classroom ilovasi - o‘qituvchi va o‘quvchilar o’rtasidagi fan doirasidagi o‘zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o‘qituvchilar kurslar yaratishi, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarning fikr-mulohazalarini qabul qilishi mumkin.

Google Classroom - LMS sifatida ishlatiladigan dasturlardan biri sanaladi. Google xizmatidan foydalanish va sozlash juda oson. Barcha ma’lumotlar Google xizmatlarida saqlanadi: videodarslar YouTubeda, elektron darsliklar Google Diskda, kurs ishtirokchilari Google dokumentda o‘zlarining yozma ishlarini bajaradilar. Kurs yaratilib, parol kurs ishtirokchilariga tarqatilgandan so‘ng onlan faoliyatboshlanadi. Kursda e’lon, topshiriqlarni qo‘shish, savollar berish mumkin (savol talabalarga bir-birlarining javoblariga izoh berish imkoniyatini berib, butun guruh tomonidan muhokama qilinishi mumkin).

E'lon - bu Google Drivega fayllarni, YouTubedan videolarni va tashqi manbalarga havolalarini qo'shishingiz mumkin bo'lgan matn. Google Docs formatidagi barcha fayllar bitta nusxada saqlanadi (tinglovchilarga faqat o'qish rejimida ochiladi) yoki har bir foydalanuvchiga o'zgartirishi (tahrirlashi) mumkin bo'lgan nusxasi beriladi. Foydalanuvchi Google Docsda hujatlarni tashkil qilishi (matnli hujjat yaratishi mumkin), shuningdek, onlayn ravishda prezentatsiyalar yoki jadval yaratishi mumkin.


Google Classroom foydalanuvchiga haqiqatan ham qog'ozsiz ishlarga o'tishga, talabalar jamoasini yaxshilashga va talabalar uchun turli xil ko'rsatmalar berishga, vaqtini tejashga, qog'ozni tejashga va sinfning inverter modelini yaratishga imkon beradi. Google Classroom - o'qituvchi yoki talabalar o'quv jarayonidan tashqarida bo'lganlarida foydali vosita bo'lib, ular dars berishda davom etishlari va o'tkazib yuborilgan darslarni davom ettirishlari mumkin.

Amaliy qism:

GOOGLEDA AKKAUNT OCHISH

Google Classroomda ishni tashkil qilish uchun sizda Googleda akkaunt bo'lishi kerak.

1. Gmail.com saytiga o'tib, "Создать аккаунт" tugmasi bosiladi. So'ng "**Длясебя**" tugmasi tanlanadi.



2. Ism-familiyangizni kriting:

Имя	Фамилия
-----	---------

3. Pochtangizga yangi ism kriting.

Имя пользователя @gmail.com
Можно использовать буквы латинского алфавита, цифры и точки.

4. 8 belidan kam bo‘lмаган парол киритиб, keyingi qatorga yana shu паролни киритинг ва “Далее” тугмасини босинг. Аhamiyat bering, “Подтвердить” qatoriga паролни ikkinchi marta doim klaviaturada kiriting. Zinhor “копировать”-“вставить” amalini bajarmang! Bu jarayon паролни то‘g‘ri terilganligini tekshirish uchun bajariladi. Agar парол ikkinchi marta noto‘g‘ri terilsa, bu haqda tizim sizga ma’lumot beradi.

Пароль Подтвердить

Пароль должен содержать не менее восьми знаков, включая буквы, цифры и специальные символы

5. Telefon raqamingizni kirititing:

Номер телефона (необязательно)

Ваш номер телефона не виден другим пользователям. Он используется только для защиты аккаунта.

*Telefon raqamingizni kiritayotganingizda, operator kodini va raqamni o‘zini kirititing.
Masalan: 90 987654321*

6. Telefon raqamingizga kelgan 6 ta raqamdan iborat G-***** kodbelgilangan qatorga kiritiladi va “Подтвердить” ugmasi bosiladi.

G- Введите код подтверждения

Назад

Прослушать код Подтвердить

7. Navbatdagi bosqichda tug‘ilganlik haqidagi ma’lumotlar kiritilib, “Далее” тугмаси bosiladi:

Резервный адрес электронной почты
(необязательно)

Он поможет нам защитить ваш аккаунт

День Месяц Год


Дата рождения

Пол


Зачем мы собираем эту информацию?

[Назад](#) [Далее](#)

8. Chiqib kelgan oynachani pastga tushirib “**Принимаю**” degan tugma bosiladi:




9. Pochta yaratildi, endi ishlashni boshlashingiz mumkin!




GOOGLE CLASSROOMDA KURS YARATISH

1. Google Classroomda kurs yaratish uchun dastlab, brauzer orqali akkauntga kirish kerak bo‘ladi. Brauzerning manzil qatoriga classroom.google.com manzilini yozgandan so‘ng tizim sizdan akkauntga kirishni so‘raydi:




2. Akkaunt tanlangandan so‘ng, Classroom sahifasi ochiladi. Agar foydalanuvchi hali hech qanday kurs yaratmagan bo‘lsa, quyidagi oyna hosil bo‘ladi:




3. Agar kurs yaratuvchi brauzerda akkauntidan chiqmagan bo‘lsa, u holda

brauzer oynasining o‘ng yuqori qismidagi belgisini bosish orqali ham ishga tushirish mumkin. Hosil bo‘lgan ikonkalar menyusidan **Classroom** ikonkasi ustiga bosib, classroom.google.com sahifasiga o‘tiladi.




4. Oynaning o'ng yuqori qismidagi “+” belgisi bosilib, “*Создать курс*” buyrug'i tanlanadi.



5. Berilgan shartlarga rozi bo'lib, “*Продолжить*” tugmasi bosiladi.

The screenshot shows the 'Using Classroom in your school?' setup screen. On the left, there are icons for various Google services: Hangouts, Keep, Jamboard, Classroom (which is circled in orange), Earth, and Collections. To the right, there is explanatory text: 'Используете Класс в учебном заведении?' (Do you use Classroom in your school?). It explains that to work with Google Classroom, a free G Suite for Education account is required for the educational institution. There is a link 'Подробнее...' (More details...). Below this, it says: 'G Suite for Education позволяет администраторам выбрать, какие сервисы Google будут доступны учащимся, а также обеспечивает дополнительную конфиденциальность и безопасность данных. Учащиеся на территории учебного заведения не смогут входить в сервис "Google Класс" с помощью обычного аккаунта.' (G Suite for Education allows administrators to choose which Google services will be available to students, and also provides additional confidentiality and security for data. Students on the premises of the educational institution will not be able to enter the "Google Classroom" service using a regular account.) At the bottom, there is a checked checkbox with the text 'Мне все понятно, и я не использую Класс в учебном заведении' (I understand everything, and I do not use Classroom in my school) and buttons 'Назад' (Back) and 'Продолжить' (Continue).

6. Ekranda paydo bo‘lgan “**Создать курс**” oynasida Kurs nomi kiritilib, tegishli qatorlar to‘ldiriladi va “**Создать**” tugmasi bosiladi.



Yaratilgan kurs virtual auditoriyada ochiladi.

Web texnologiyalar

Код курса xch2ug4 []

Код курса xch2ug4 []

Har bir kurs avtomatik ravishda kod oladi, unga ko‘ra, talabalar keyinchalik o‘zlarining "virtual auditoriyalarini" topishlari mumkin bo‘ladi. Kirish Google Classroomning mobil ilovasida ham Android va iOS uchun mavjud.

Kurs yaratulgandan so‘ng unga o‘quvchilarni biriktirish uchun

“Пользователи” bo‘limiga o‘tib, **“Учащиеся”** qatoridagi



The screenshot shows a browser window with several tabs open. The active tab is 'classroom.google.com/r/MTM1MzA2MzY1NzE4/sort-last-name'. The page displays a list of students in a classroom named 'Web texnologiyalar'. The 'Пользователи' tab is selected. Below the student list, there is a note: 'Пригласите учащихся на курс или сообщите им этот код: xch2ug4'. A red circle highlights the 'Учащиеся' tab.

Hosil bo‘lgan oynaning tegishli qatoriga qatnashuvchilarning e-mail adreslari yoziladi va kurs kodi ularning elektron pochatalariga yuboriladi.

Shunday qilib, siz Google Classroomda o‘z kursingizga ega bo‘ldingiz va u bilan ishlashni boshlashingiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Google Classroom nima va uning asosiy maqsadi nima?
2. Google Classroom yordamida qanday materiallar yuklash mumkin?
3. Talabalarga topshiriq yaratish va uni ulashishning asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.
4. Google Classroomning afzalliklari va kamchiliklarini sanab bering.
5. Kurs yaratish jarayonini izohlab bering.
6. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni qanday tashkil qilish mumkin?
7. Google Classroomdagi "Stream" bo‘limining vazifasi nima?
8. Sinf kodini qanday topish va undan qanday foydalanish mumkin?
9. O‘qituvchi Google Classroomda qanday qilib topshiriqni baholaydi?
10. Talaba topshiriqni qanday topshiradi va uning qayta ko‘rib chiqilishi mumkinmi?

12-AMALIYOT

Mavzu: Tarmoq texnologiyalari. OSI-tarmoq modeli etalonı

Reja:

1. Tarmoqning tuzilishi, apparat va dasturiy ta’minoti.
2. Tarmoq tizimining asosiy konfiguratsiyasi.
3. Bir tarmoqning segmentlarini ularish.

Nazariy qism

Takrorlovchi – bir tarmoqning segmentlarini ularash uchun kuchaytiruvchi va signal ishlab chiqarishni ta’minlovchi qurilma. OSI modelining fizik qatlamida ishlaydi. Tarmoqni ulangan tugunlarningmasofa va soni bilan kengaytirish imkonini beradi.

Konsentrator - bir nechta qurilmalarni umumiyligi signalga birlashtirish uchun mo‘ljallangan tarmoq qurilmasi.

Konsentrator funksiyalari:

1. Turli xil fizik muhitdagi segmentlarni bir lokal segmentga birlashtiradi.
2. Avtomatik port segmentatsiyasi.
3. Kiritish-chiqarish qurilmalaridan birgalikda foydalanish.

Kommulator – portlar orasidagi paketlarni yuqori tezlikda uzatishni ta'minlaydigan ko‘p portli qurilmadir.

Kommulator funksiyalari:

1. Kompyuterlar, serverlar kabi turli tarmoq qurilmalarini bir tarmoq segmentiga ulaydi.
2. Ma'lumotni jo'natuvchi va qabul qiluvchi portni MAC-manzili tahlilqilish shuningdek, jadvallarni shakllantirish.

"Витая пара" simi tizimi telefon tizimlari, lokal tarmoqlarda, telefon va televiedeniya signallarining uzoq masofalarga ma'lumotlarni uzatishda ishlataladi. 2 turdag'i "Витая пара" mavjud: ekranlangan burma juftlik va ekranlanmagan burma juftlik.

Ekranlanmagan burma juftlik lokal hisoblash tarmoqlarida keng qo'llaniladi, segmentning maksimal uzunligi 100 m. Ekranlanmagan burma juft ikki izolyatsiya qilingan mis simdan iborat. 1-5, 5e, 6, 6A va 7 turkumlarga bo'linadi.

Himoyalangan burma juftlik undan ko‘p himoyalashni ta'minlaydigan mis qoplama bor, faqat simlar folga bilan qayta ishlanadi. Ekranlangan buralgan juftlik tashqi interferentsiyadan ma'lumotlarni himoya qiluvchi ajoyib izolyatsiyaga ega. Kabellar turlari (turi 1- turi 9) bo'linadi.

Optik tolali kabel. Ma'lumot yorug'lilik signallari yordamida uzatiladi. Har bir shisha tolali signallarni faqat bitta yo'nalishda uzatadi, shuning uchun simi ikkita tolali alohida konnektorga ega.

Router - bir kompyuter tarmog‘ini qurish va uning ish barqarorligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan qurilma, turli tarmoq elementlari orasidagi ma'lumotlar paketlarini uzatish.

Router xususiyatlari:

1. Lokal tarmoqlarni (LAN) geografik tarqalgan tarmoqlarga (WAN) ulash.
2. Bir nechta lokal tarmoqlarni ulash.

Routers OSI modelining uchinchi yoki yettinchi darajasida ishlaydi.

Brandmauer - vositalari orqali internet orqali kompyuterga kirish nazorati jarayoni. Ikki xil xavfsizlik devori mavjud: dasturiy ta'minot va apparat.

Brandmauer xususiyatlari:

1. Kompyuterning xavfsizlik bilan ta'minlanadi.
2. Kompyuterda o'rnatilgan har qanday tarmoq dasturlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Tarmoq kartasi - tarmoqdagi bir nechta kompyuterlar o'rtaida aloqa va ma'lumotlarni uzatish imkonini beruvchi kompyuterning maxsus komponenti.

Modem - bir analog telefon liniyasi bo'yicha ikki tomonlama (raqamli)ma'lumotlarni uzatish imkonini beruvchi muloqot qurilma.

Ma'lumotlar kompyuterdan diskret (turli xil) signallarga ketma-ketlikni o'zgartiradi va ularni analog telefon liniyasiga yuboradi. Boshqa tomonidan, ular qabul qiluvchi modem tomonidan analog-raqamlı konversiya bilan parollanadi.

Ko'priklar - ramka uzatish ikki (yoki undan ko‘p) segmentlari o'rtaida anglatadi. Ko'priklar nomini tahlil qiladi - u qiziqadi. MAC manzili manba va manzil. Ko'priklar keladigan ramkalarni tinglaydi va jadvallarni tuzadi. MAC-manzillar. Ushbu portlarga ulangan tugunlar.


1-Mashq.

Kompyuterni MAC- manzilini aniqlang.

1- usul. Ushbu usul Windows 7 ning misolida keltirilgan. Quyidagitugmalarni ketma-ket bosing:


Пуск→Панель управления→Сеть и интернет→Центр управления сетями и общим доступом→Изменение параметров адаптера→Подключение по локальной сети.

Shundan so'ng quyidagi oyna paydo bo'лади.



12.1-rasm. Kompyutering MAC- manzilini aniqlash

2- usul. Пуск→Все программы→Стандартные→Выполнит га cmd buyrug‘i yoziladi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan oynaga ipconfig / all yozibEnter tugmasini bosing. Natijada MAC- manzili haqida ma’lumot chiqadi.



12.2-rasm. MAC- manzili haqida ma’lumot

Nazorat savollari:

1. Kompyuter tarmog‘i nima?
2. Tarmoqlar apparaturasiga nimalar kiradi?
3. Aloqa qurilmalarining funksiyalari va xususiyatlari.
4. Faol tarmoq uskunalarini nima?
5. Passiv tarmoq uskunalarini nima?
6. Tarmoq aksessuarlari nima?

13-AMALIYOT

Mavzu: Tarmoq kartasini o‘rnatish va sozlash. OSI va TCP/IP

Ishning maqsadi: Tarmoq qurilmalari va kommunikasiya vositalari, ularning vazifalari va amalda qo‘llash malakasini hosil qilish.

Ish rejasi:

1. Tarmoq kartasi. Uni umumiy ishlash prinsipi. Tarmoq kartasini o'rnatish va sozlash.
2. Tarmoq osti maskasini o'rganish va kompyuterlar uchun ip adressini hisoblash.

1. Tarmoq kartasini o'rnatish.




1. Kompyuterni tarmoqdan o'chiring.
2. O'rnatishga xalaqit beradigan simlarning hammasini tizimli blokdan ajrating.
3. Shaxsiy kompyutering tizimli blokini oching. Zarur ulanish joyiga, mazkur holatda esa PCI ulanish joyiga, yo'l oching.

13.1-rasm. Tarmoq kartasi

4. Tizimli blokni plata o'rnatishga tayyorlang. Himoya vositani olib tashlang.
5. Tarmoq kartasini slotga o'rnating va oxirigacha bosing, lekin avval kartani to'g'ri o'rnatganingizga amin bo'ling.
6. Tizimli blokni yoping, zarur kabellarni va tokni ulang.
7. Shaxsiy kompyuter yoqilganida yangi jihozni o'rnatish ustasi ishga tushishi kerak. Agar u ishga tushmasa, yangi jihozni boshqaruva paneli (jihoz o'rnatish) orqali topishga harakat qilib ko'ring. Agar bu holda ham tarmoq kartasi topilmasa, uning to'g'ri ulanganligini yana tekshirib ko'ring.
8. Shaxsiy kompyuter tarmoq kartasini topganidan so'ng, uskunaning to'g'ri ishlashi uchun drayver dasturini o'rnatish zarur.

Agar tarmoq kartasi Plug And Play jihozlari standartiga taalluqli bo'lsa, unda drayver avtomatik tarzda o'rnataladi. Agar u mazkur standartga tegishli bo'lsa, jihozga ilova qilingan drayverli diskdan foydalaning yoki shaxsiy kompyutering amalar tizimi taklif qiladigan uskunalar ro'yxatidan o'zingizga zarurini tanlab oling.

Tarmoq kartasi o'rnatildi, endi uni tarmoq talablariga mos ravishda sozlash kerak bo'ladi. Buning uchun tarmoqli ulanish xususiyatlarini ishga solamiz. Zarur bayonnomalarning mavjudligini tekshiramiz va zarur bo'lganda ularni qo'shamiz.TCP/IP bayonnomasini sozlaymiz.



2. Tarmoq kartasini sozlash


Tarmoq kartasi o'rnatildi, endi uni tarmoq talablariga mos ravishda sozlash kerak bo'ladi.

13.2-rasm. Tarmoq kartasini sozlash

Buning uchun tarmoqli ulanish xususiyatlarini ishga tushiramiz. Пуск->Настройка->Сеть и удаленный доступ к сети menyusiga kiramiz. (13.2-rasm)

Bu uangi oynada yangi ulanishni yaratish va “Подключение по локальной сети” papkalari bor. Ularda ikkinchisini tanlab, sichqonchaning o‘ng tugmasi orqali uning “Свойства” qism menyusiga kiramiz (13.3-rasm).

Zarur bayonnomalarning mavjudligini tekshiramiz va zarur bo‘lganda ularni qo‘shamiz.TCP/IP bayonnomasini sozlaymiz.



13.3-rasm. Tarmoq kartasining xususiyatlar oynasi

IP (Internet Protocol) – paketlarni uzatuvchi protokol, tarmoq protokolari jumlasiga kiradi. IP protokoli tarmoqdagi xar bir kompyuterga yoki tizimga to‘rt xonalik IP – manzil (4 oktetli) mos qo‘yiladi. Shu bilan birga quyi tarmoqdagi kompyuterlar manzilning umumiy boshlang‘ich bitlari bilan birlashtiriladi. Internat tarmog‘iga ulangan xar bir kompyuter o‘zining noyob IP adresiga ega bo‘ladi. IP-adres - Nuqtalar bilan ajratilgan to‘rtta sondan (oktet)iborat noyob son. Har bir son 0-255 oralig‘ida bo‘lishi lozim. Masalan, 212.134.145.156.

Kompyuterdan osonroq erkin foydalanish uchun odatda uning domen nomidan foydalaniadi. Internetga ulangan tarmoqlarni qurishda IP manzillar provayder tomonidan taqdim etilgan oraliqdan tanlab olinadi.

Masalan :

IP adres 192.168.0.1 Maska 255.255.0.0

$$2^n = 2^7 = 2 \times 2 \times 2 \times 2 \times 2 \times 2 \times 2 = 128 \quad 128 + 2^6 = 192$$

- 128 64 32 16 8 4 2 1
 - 7 6 5 4 3 2 1 0
 -

IP address	1	1	0	0	0	0	0	0	1	0	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1
	192					168					0					0					1				
	Network												Address												
Mask	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	255					255					0					0					0				

Provayder tomonidan berilgan IP manzilga ega bo‘lmagan kompyuterlar (yo‘naltirish to‘g‘ri sozlanganda) mahalliy tarmoqlar uchun zahiralangan oraliqdagi IP manzillarga ega bo‘lib, boshqa mahalliy kompyuterlar bilan ishlashi mumkin SIDR:


192.168.0.1 - 192.168.255.255

172.16.0.1 - 172.16.255.255

10.0.0.1 - 10.255.255.255

A-klass 1....127;
B-klass 128....191;
C-klass 192....223;
D-klass 224....239;
E-klass 240....255;

Ushbu kompyuterlar proksi serverlar yoki NAT texnologiyasi yordamida Internetga ulanishi mumkin.



IPv4 protokolning asosiy muammolari

- Maksimal 4 mlrd adreslar (2^{32})
- Xar bir ishlatuvchiga unikal adres ajratish muammosi
- Xizmat sifatini ta‘minlash
- Xavfsizlik ta‘minlanmaydi

Amaliy qism:

1 – variant. 4 ta kompyuter uchun tarmoq osti maskasi va ip adresini xisoblash.

Ip adres: 192.168.1.30/24

Maska: 255.255.255.0/24

Ikkilik ko‘rinishida:

Ip	11000000	10101000	00000001	00011110
Maska	11111111	11111111	11111111	00000000

Ip va maska 4 ta oktetdan iborat. Olingan adres “S” sinfiga mansub. Kompyuterlar (xost) uchun adreslarni xisoblashda maskaning “0” dan boshlangan oktetidan yoki bitidan foydalaniib 2 ning darajasi sifatida olinadi va broadkastni chiqarib tashlash uchun 2 dan ayiriladi. 4 ta kompyuter uchun 2 ta bit yetmaydi, chunki $2^2 - 2 = 2$, 3 ta bit olinsa $2^2 - 2 = 6$, demak 3 bit olinadi. Ip va maska xor ko‘rinishida qo‘shiladi, o‘zgargan natija tarmoq adresini beradi. Va maska quyidagicha o‘zgaradi.

O‘nlik ko‘rinishda:

Ip adres: 192.168.1.30/29

Maska: 255.255.255.248/29

Inversiya: 0.0.0.7 chunki $255 - 248 = 7$

Tarmoq (Ip): 192.168.1.24/29

Ikkilik ko‘rinishda:

Ip	11000000	10101000	00000001	00011110
Maska	11111111	11111111	11111111	11111000
Tarmoq	11000000	10101000	00000001	00011000

Natija:

Tarmoq (Ip): 192.168.1.24/29

Eng kichik Ip:

192.168.1.25/29

Eng katta Ip:

192.168.1.30/29

Broadkast:

192.168.1.31/29

Kompyuterlar (xostlar) soni: 6 ta, 2 tasi rezerv.

Azizbek- PC	Farrux- PC	Akmal- PC	Sanjar-PC	Mirvohid- PC	Miraziz- PC	rezerv
192.168.1.25/29	192.168.1.26/29	192.168.1.27/29	192.168.1.28/29	192.168.1.29/29	192.168.1.30/29	

- Maska barchasi uchun:** 255.255.255.248/29

Nazariy savollar.

1. Tarmoq kartasi nima?
2. Tarmoq kartasining umumiyl ishlash prinsipi.
3. Tarmoq kartasini o'mnativish va sozlash.
4. Tarmoq kabeli.
5. Kabellarning turlari va ularga tavsiflar.
6. Tarmoq komponentlari.
7. Kommutasiyalovchi qurilmalar.
8. Tarmoq kartasining vazifalari nimalardan iborat?
9. Plug and Play nima?
10. TCP/ IP protokol nima?
11. Qanday tarmoq kartalari mavjud?

14-15-AMALIYOT

MAVZU: ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI IMKONIYATLARI, DAVLAT INTERAKTIV XIZMATLARI


I. Ishning maqsadi: Talabalarga elektron hukumat tizimi imkoniyatlari va davlat interaktiv xizmatlaridan foydalanishni o'rgatish.

II. Kerakli jihozlar: Shahsiy kompyuter, Internet tarmog'i, adabiyotlar va internet resurslari.

III. Ishni o'rghanish tartibi: Talabalarga interaktiv xizmatlardan foydalanishni o'rgatish.

Davlat tashkilotiga elektron murojaat jo'nativish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalni faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378-sun qarori ijrosi sifatida, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni, (Yagona portal), yaratildi va 2013 yil 1 iyulda Internet tarmog'ida ishga tushirildi.

Endi yagona portal orqali ro'yxatdan o'tish va davlat tashkilotiga murojaat jo'nativishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun internet tarmog'iga ulangan kompyuter orqali brouzerni ishga tushirib, www.my.gov.uz ni yuklaymiz. Brouzer quyidagi web sahifani ochib beradi:



id.gov.uz



Yagona portal xizmatlaridan foydalanish uchun siz quyidagi ro‘yxatdan o‘tish usullaridan birini tanlashingiz mumkin:

1. SMS-tasdiqlash orqali. Aktivatsiya kodini mobil telyefonga SMS- xabar orqali olish mumkin
2. ID.UZ yagona identifikatsiya tizimi yordamida.
3. Elektron raqamli imzo yordamida.
4. UzCard yordamida.

Biz ID.UZ yagona identifikatsiya tizimi yordamida ro‘yxatdan o‘tishni tavsiya qilamiz. Bu tizimning afzalliklarini oldingi amaliy mashg‘ulotimizda ko‘rib o‘tganmiz. Demak yagona identifikatsiya tizimidagi login va parolimiz orqali yagona portal xizmatlaridan foydalanamiz.

Agar siz parolni unutgan bo‘lsangiz, parolni tiklash shaklidan foydalanishingiz mumkin. Bu holatda parol sizga (ID.UZtizimida ro‘yxatdan o‘tish chog‘ida siz tomoningizdan tanlangan usuldan kelib chiqqan holda) SMS yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

Eslatma! Agar siz eslab qolishni belgilab bo‘lsangiz login va parolingiz brouzer xotirasida saqlanib qoladi. Bu holatni belgilash axborot xavfsizligini taminlash maqsadida faqatgina o‘zingizning shaxsiy kompyuteringizdan foydalanayotgandagina tavsiya qilinadi.

Parolni kiritib, kirishni bosganimizdan keyin yagona portal yuklanadi, va biz quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lamiz:

- davlat organlari va xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni olish;
- davlat xizmatlarini olish uchun lozim bo‘lgan murojaat va boshqa hujjatlarni elektron shaklda to‘ldirish;
- davlat xizmatini ko‘rsatish uchun murojaat yo‘llash;
- davlat xizmatini ko‘rsatish uchun yo‘llangan murojaatni ko‘rib chiqish jarayoni haqidagi ma’lumotlarni olish;
- davlat xizmatlari natijalarini olish;
- tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘rganish
- normativ xuquqiy xujjatlar muhokamasi va h.k.

Eslatma! Hurmatli foydalanuvchi! Yagona portal Sizga davlat tashkilotiga tashrif buyurishdan yoki qog‘oz tarzda xat yuborishdan qulayroq bo‘lgan davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. shu bilan birga, sizning yuborayotgan murojaatingiz

Elektron to‘lov tizimlari

<http://click.uz/>.Kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishi - tijorat banklari, tashkilotlar, jismoniy shaxslar uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqish, ularni joriy etish, turli apparat-dasturiy

komplekslarga moslashtirish va kelgusi takomillashtirishdir. Click tizimi hozirda biz ko'rsatmoqchi bo'lgan amallar plastik kartalar uchun aloqador. Click xizmatini o'z telyefoningizga sozlash uchunsiz avalambor o'z plastik kartochkangizga SMS xizmatini yoqtirgan bo'lishingiz kerak.


SMS xizmatini siz o'zingizga yaqin bo'lgan BANKOMATdan yoki o'zingizni bankingizdan yoqtirishingiz mumkin.

Plastik kartangizga UZCARD-CLICK xizmatini ulash uchun avvalam bor istagan bank yoki infokiosk (bankomat) orqali "SMS-Xabarnoma" xizmatni yoqtirishingiz kerak. Yaqin atrofdagi infokiosk/bankomatlarning ro'yxatini www.click.uz dan topishingiz mumkin.

"SMS-Xabarnoma" xizmatini online plastik kartalar uchun

uyali telyefoningizga infokiosk/bankomatda yoqtirish yo'riqnomasi

- Kartangizni uskunaning karta qabul qilish joyiga soling. Ekranga til tanlash menyusi chiqadi:



- Tilni tanlaganiningizdan so'ng kartaning PIN-kodini kiritish uchun forma paydo bo'ladi:



D1QQAT! KARTA RIDERI ATROFIDA TASHQI VA NOMA'LUM BUYUMLAF BO'LILMAGANLIGIGA E'TIBOR BERING!

- Karta PIN-kodini kriting. Ekranga asosiy menu chiqadi:



- «SMS-Xabarnoma xizmati» punktini tanlang. Shundan so'ng xizmatni boshqarish menyusi chiqadi:



1. "SMS-Xabarnoma" xizmatini o'chirib, qaytadan ulating.
2. Karta balansini chekni nashr qildirish bilan chiqarib ko'ring. Agar sodir bo'limasa, demak, chek printerida muammo bor. Bank xodimiga murojaat qiling.
3. Agar infokiosk/bankomat kartani solganingizdan so'ng yashil ekran chiqarib, kartangizni qaytarsa, ushbu infokiosk aloqasiz qolganidan dalolat beradi. Aloqani sozlashi uchun bank xodimlariga murojaat qiling.

SMS xizmatini yoqtirganingizdan so'ng sizning telyefoningizga plastik kartochkangiz orqali amalga oshirilgan har bir to'lovlari va boshqa operatsiyalar haqida SMS ma'lumotlari kelib turadi. Ushbu har bir kiruvchi SMSlar narxi 0.0005 USD hisoblanadi.

Click xizmatini telefoningizga sozlash uchun plastik kartochkangizning SMS xizmati ulangan telefon raqamidan *880*karta nomeri*amal qilish muddati# ni terib chaqiriv tugmasini bosing.

Karta nomeri- bu plastik kartochkada ko'rsatilgan 16 ta raqamdan iborat sonlardir. Bu sizning plastik kartochkangiz nomeri hisoblanadi. ushbu raqamni siz bo'sh joy qoldirmagan holda terishingiz kerak.

Amal qilish muddati-bu plastik kartockaning amal qilish muddatidir. Bu plastik kartochkangizga ko'rsatilgan bo'lib 4 ta raqamdan iborat. Ushbu raqam chiziqcha bilan ajratilgan bo'ladi, lekin uni terishda chiziqcha yozilmaydi.

Ushbu raqamlarni telefoningizdan terganingizdan so'ng 15 daqiqa ichida so'rovningiz qabul qilingani haqida xabar keladi. Va siz o'z telefoningizdan *880# so'rovni terib CLIK PIN ni o'rnatasisiz.

CLIK PIN-bu telefoningizdan clik operatsiyalarini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan pin kod hisoblanadi.

"CLICK" tizimining asosiy imkoniyatlari:

- - To'lovlarni mobil telyefon yoki Internet orqali bevosita jismoniy shaxslarning bank hisoblaridan naqd pul mablag'laridan foydalanmasdan amalga oshirish;
 - - USSD/SMS/WEB - portal yordamida taqdim qilingan hisoblarni boshqarish;
 - - CLICK tizimining boshqa foydalanuvchilariga pul mablag'larini o'rganish;
 - - Hisobdan hisobga pul mablag'larini o'rganish;
- - Balansni doimiy ravishda ishchi holatda ushlab turuvchi, «Avtoto'lov» xizmatini aktivlashtirish imkoniyati;
 - - To'lovlar tarixini ko'rish;
 - - Bank hisoblarini onlayn tartibda tekshirish;
 - - Hisob rekvizitlarini olish;
 - - Bank hisoblari bo'yicha SMS-xabarnomalar;
- CLICK - hisobdan kreditni to'lash va ko'pgina boshqa imkoniyatlar.

IV. Xulosa: Talabalar davlat interaktiv xizmatlaridan electron xujjatlarni qanday jo'natish va qabul qilish, ONLINE ravishda barcha davlat xizmat organlari uchun arizalar topshirishni amalga oshirish mumkin.

V. Topshiriqlar:

- 1 . Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro'yxatdan o'tish ketma ketligi xaqida nimalarni bilasiz?

2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan davlat tashkilotiga murojaat jo‘natishni qanday amalga oshiriladi?
3. Internet va milliy tarmoq xizmatlari xaqida nimalarni bilasiz?
4. Yagona davlat interaktiv xizmatlar portalda rejalashtirilayotgan xizmatlar haqida nimalarni bilasiz?
5. «Fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish» xizmati tartibini aytинг.

VI. Adabiyotlar

1. Misty E Vermaat, Susan L Sebok, Steven M Freund. Discovering Compyuters (C)2016 (2016 edition). Textbook.USA, 2016

2. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalar, O‘quv qo‘llanma, T.: “Noshir”, 2009

Jurayev Umidjon Sayfullayevich

60210500 – Rangtasvir bakalavriat ta’lim yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olayotgan
talabalar uchun
Sa’ant sohasida axborot texnologiyalar fanidan amaliyot mashg‘ulotlar

“Sa’ant sohasida axborot texnologiyalar”
amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha

U S L U B I Y K O‘ R S A T M A

